

O'ZBEK TILI DARSLARIDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH DARS SAMARADORLIGINI OSHIRUVCHI OMIL

Alloyerova Bonu Abdulloyevna

Buxoro shahar 2-o'rta maktab o'zbek tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek tili darslarida interfaol metodlar va pedagogik texnologiyalarni dars jarayonida qo'llash haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *darslik, interfaol metodlar, pedagogik texnologiyalar, chaynvord, "Puzzle" metodi, "Myunsterbeng" metodi, "Rost, yolg'on" metodi, krossvord.*

Zamonaviy ta'lim zamon bilan hamnafas bo'lmog'i lozim. Buning uchun, albatta, o'quv vositalari zamon talablariga mos bo'lishi lozim. Shu sababdan bugungi kunda o'zbek tili darsliklarimiz tubdan yangilandi. Shunga ko'ra darsliklardagi mavzu ko'lami o'zgardi. Albatta, zamon talabiga mos darslarni tashkil etish har bir o'qituvchining o'z oldiga qo'ygan maqsadi bo'lmog'i darkor. Shuning uchun har bir pedagog o'z ustida tinimsiz ishlashi hamda darslarini zamon talabiga mos ravishda tashkil etmog'i lozim. Buning uchun interfaol metodlar, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish dars samaradorligini oshirishi bilan birga o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

O'zbek tili fanining yangi avlod darsliklarda adabiy mavzular qo'shildi. 5-sinf o'zbek tili darsligida "Adabiy o'qish. Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi" berilgan. Mavzu yuzasidan hikoyat berilgan. Bu mavzuni o'tishda yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol usullardan keng foydalanish mumkin. Dastlab o'quvchilarga Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi haqida ma'lumot berishimiz mumkin yoki mustaqil topshiriq sifatida uyga vazifa sifatida berishimiz mumkin. Chunki darslikda shoir ijodi deyarli ma'lumot yo'q. Shunga ko'ra o'quvchilarga oldindan bu ma'lumotlarni yetkazishimiz mumkin.


Bobur didi va zavqi baland shoir edi. U go'zal g'azallar yozdi. Ruboiyning tengsiz namunalarini yaratdi. Ko'rgan-kechirgan voqealari haqida «Boburnoma» asarini yozib qoldirdi. Uning qalbi musiqaga oshno edi. U sozni go'zal chalgan, ajoyib kuylar yaratgan, musiqa haqida ilmiy kitob yozgan shohlardan edi. Bobur 1483-yilning 14-fevralida Andijonda tug'ildi. Otasi temuriyzoda Umarshayx Farg'ona viloyati hukmdori edi. Onasi Qutlug'nigorxonim Toshkent hokimi Yunusxonning qizi edi. Otasi bevaqt vafot etgach, Farg'ona hokimligi 12 yoshdagi Boburning zimmasiga tushdi. 15 yoshida bobomeros Samarqandni zabt etadi. 16 yoshida bu azim shaharni tashlab chiqishga majbur bo'ladi. Keyin ham ikki marotaba bu shaharni egallashga muvaffaq bo'ldi. Lekin saqlab qolish nasib etmadi. Samarqandni ham, Andijonni ham qo'ldan berib, tog'-u toshlarda besh-o'n yigiti bilan goh otliq, goh yayov yurgan paytlari ham bo'ldi. Nihoyat, 1503-yilda Jayhun (Amu)ni kechib, Xurosonga o'tdi. Kobul G'aznani

qo'lga kiritdi. So'ng 1526-yilda Hindistonni zabt etib, boburiylar saltanatiga asos soldi. Bobur 1530-yilning 26-dekabrida Agrada vafot etdi. Keyin uning xoki, vasiyatiga muvofiq, Kobulga ko'chiriladi Bobur ikki she'riy to'plam – devon tuzgan. Bizgacha shularda bittasi "Kobul" devoni yetib kelgan. Ikkinchisi "Hind" devoni taqdiri noma'lum. Hozirda bizning qo'limizda uning to'rt yuzdan ortiq she'ri bor. Shundan ikki yuzdan ortig'i ruboiydir. Ruboiy sharq she'riyatida keng tarqalgan she'r turlaridan, to'rtlik. Aruzning ma'lum vaznidagina yozilgan. Bobur ruboiylar har jihatdan to'kis, mukammal she'riy asarlardir. Ularda Bobur hayotining manzaralari aks etadi. Shoir o'z umrining achchiq-chuchuk kunlaridan so'z ochadi. [3]

Shundan so'ng biz o'quvchilarning ma'lumotni qay darajada o'zlashtirganligini aniqlash uchun "Rost, yo'lg'on" metodidan foydalanishimiz mumkin. Bu metod o'quvchilarni tezkorlikka chorlaydi hamda o'qilgan ma'lumotni o'zlashtirganlikni biz bilib olishimiz mumkin. 1.Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yil 14-fevralda Hirotida tug'ilgan. (Rost) 2. Bobur Mirzoning otasi Umarshayx Mirzo temuriylar sulolasidan bo'lgan (Rost) 3. Bobur Mirzo Samarqanda ulkan davlat qurgan (Yolg'on) 4. Bobur Mirzo ikkita devon tuzgan (Rost) 5. "Kobul" devoni topilmagan. (Yolg'on) 6. Bobur Mirzo "Boburnoma" asarini fors tilida yozgan. 7. Bobur Hindistonga yurishni Andijondan boshlagan. (Yolg'on) 8. Bobur Mirzo ikki yuzdan ortiq ruboiy yozgan. (Rost) 9. Bobir Mirzo o'z hukmdorlik davrida faqat harbiy yurishlarga qiziqqan, ilm-u ma'rifatga e'tibor bermagan. (Yolg'on) 10. Bobur Mirzo o'z asarlarida faqat tarixiy voqealarni bayon qilgan, lekin shaxsiy his-tuyg'ularini ifoda etmagan. (Yolg'on)

Darsning mustahkamlash qismida biz krossvordan foydalanishimiz mumkin.

1.Mirzo Bobur sog'ingan joy. 2.Bobur boshidan kechirganlari, hayoti, o'zi guvoh bo'lgan voqealarini bu asarda yozib qoldirgan. 3. Bobur dastlab zabt etgan shahar. 4. Bobur tomonidan Kobulda va Hindistonda barpo etilgan xushhavo joy. 5. Bobur tomonidan yozilgan,ammo topilmagan she'riy devon. 6. Boburning vatani. 7. Bobur tomonidan uch marta zabt etilgan, lekin yashash nasib etmagan shahar.



Shundan so'ng 5-sinf o'zbek tili darsligida berilgan Zahiriddin Muhammad Bobur haqida berilgan hikoya o'qiladi. Hikoya savol-javob orqali mustahkamlanadi. Bobur mirzo o'z hayotida ko'plab bog'lar barpo etadi. Bog'i Bobur, Bog'i Shaharoro, Bog'i Vafo, Bogi Stolif. Shunga ko'ra sinfni guruhlariga bo'lib, har bir guruhga bog'larni gul bilan to'ldirish topshirig'i beriladi. Bu metodni biz "Bog'bon" metodi deb ataymiz. O'quvchilarga biz gul ko'chatlarini beramiz. Unda savollar yozilgan bo'ladi. O'quvchilar savollarga javob berishadi hamda Bobur bog'lariga gul o'tkazishadi. Gul ko'chatlariga turli savollarni yopishtirishimiz mumkin. Misol uchun. Bobur Mirzo bog'bonlarga qanday topshiriq beradi? Bog'bonlar Hindistonda nima ekmoqchi bo'lishadi? Sizningcha, nega qovun ko'chatlari hosil bermaydi? Bog'bonlar qanday tadbir o'ylab topishdi? Bobur nega bu qovun Hindistonga yetishtirilganiga ishonmadi? Bobur nima uchun bog'bonga zarbof to'n berdi? Kabi savollardan keng foydalanishimiz mumkin. Bu metod orqali o'quvchilarni ham bilimlarini mustahkamlash, ham bog' barpo etishga rag'batli qilib tarbiyalashimiz mumkin. Kelajakda ulardan yaxshi bog'bon chiqishi mumkin.

O'quvchilarning diqqatini jalb qilish maqsadida turli anogrammalardan foydalanish mumkin. Misol uchun 7-sinf o'zbek tili darsligida "Milliy hunarmandchilik" mavzusi bor. Biz shu mavzuni o'tishda anogramma metodidan foydalansak bo'ladi. Bu metodda hunar turlari yozilgan bo'ladi. Lekin aralash tarzda berilgan bo'ladi. Urdgardo (duradgor), rzgaar(zargar), olkul(kulol), oynvon(nonvoy), dzo'arz(zardo'z), ipoqich(pichoqchi). O'quvchilar harflarni joyiga qo'yib, anogrammalarni tiklaydilar va hunarmandlar nomini bilib oladilar. Bu metod orqali o'quvchilarning diqqatini mustahkamlash mumkin.

O'quvchilarning so'z boyligini oshirish maqsadida chaynvorddan foydalanishimiz mumkin. Bu metodda o'quvchilarga ch harfi bilan boshlanadigan so'zlar beriladi.

1.Uyimizni yoritadi.(Chiroq) 2. Ola-bula rang. (Chipor) 3.Uzoq umr ko'ruvchi daraxt(chinor) 4.Gullar ko'p o'sadigan joy. (Chaman) 5.Ovqat suzish asbobi.

(Cho'mich) 6.Qo'li gil odam(Chevar) 7.Jonga ozor beruvchi jonivor(Chivin)

Bu misolni Q harfi bilan ham davom ettirishimiz mumkin. 1.Rassom ish quroli.(Qalam). 2. Mehmon(Qo'noq) 3. Poliz ekini (Qovoq) 4. Rang (Qizil).5. Qirqish asbobi (qaychi). 6.Millat. (Qozoq) 7.Suv transporti(Qayiq)

5-sinf o'zbek tili darsligida "Onlayn buyurtma" mavzusi berilgan. Ushbu mavzuni o'tishda "Puzzle" metodidan foydalansa, o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirish samaradorligi ortadi. Ushbu metoddan foydalanishda dastlab o'quvchilarni guruhlariga bo'lish lozim. Ushbu mavzuga oid o'quvchilarga bo'laklarga bo'lingan ma'lumotlarni beriladi. Ma'lumotlarni 10 va undan ortiq bo'lakka bo'lish mumkin. O'quvchilar tomonidan puzzl tiklanadi. Puzzlni tiklagandan so'ng mavzu haqida ma'lumotlar berishadi. Bu metod orqali o'quvchilarni yangi mavzuga tayyorlash mumkin. Bu metodni qo'llasak, o'quvchilar yangi mavzuni tez o'zlashtirishadi. Bu metod

o'quvchilarning diqqatini jalb etadi. Barcha o'quvchilar birgalikda faoliyat yuritishiga zamin yaratadi.

Puzzl matni: “Online xaridlar- bu xaridorning to'g'ridan-to'g'ri internet orqali tovarlar yoki xizmatlarni web sayt yoki mobile ilova yordamida sotib olish imkonini beradigan elektron tijorat shaklidir. Xaridorlar qiziqqan mahsulotni to'g'ridan-to'g'ri sotuvchining websaytiga tashrif buyurib yoki turli elektron chakana sotuvchilarda bir xil mahsulot mavjudligi va narxini ko'rsatadigan xarid qidiruv tizimidan foydalangan holda muqobil sotuvchilar orasida qidirish orqali topiladi. Mijozlar turli xil kompyuterlar va qurilmalar ,jumladan, ish stoli kompyuterlari, noutbuklar, planshet va smartfonlar yordamida onlayn xarid qilishlari mumkin.” [4]

7-sinf o'zbek tili darsligida “Hashar elga yarashar” mavzusi berilgan.Ushbu mavzu o'tilgandan so'ng o'quvchilarning o'tgan mavzudagi bilimlarini mustahkamlash maqsadida “Myunsterberg” metodidan foydalansak bo'ladi. Bunda o'quvchilarga dastlab mavzu haqida ma'lumot beriladi. Shundan so'ng o'tilgan mavzuni mustahkamlash qismida biz “Myunsterberg” metodidan foydalansak bo'ladi. Bu metodda o'quvchilarga jadval beriladi. O'quvchilar shu jadval asosida so'zlarni topishadi.

Bunda o'quvchilar tomonidan topilgan so'zlar izohlanadi. Bu metod o'quvchilarni diqqatini jamlaydi. Ularni topqir , zukko bo'lishiga, mavzuni qanchalik o'zlashtirishiga samarali omil sifatida xizmat qiladi.

d									
						,			

O'quvchilarning chaqqonroq, tezkor hamda mavzu asosida bilimlarini mustahkamlash uchun biz “Estafeta” usulidan foydalanishimiz mumkin. Bunda biz sinfni guruhlarga bo'lamiz. Har bir guruhga bayroqchalar beramiz. Biz o'quvchilarga jismoniy tarbiya fanini yodga olamiz deb aytamiz. Faqat bunda yugurish emas, balki, bilimlarni yodga olamiz. 5-sinf o'zbek tili darsida “Kelajakda men” mavzusi bor. Ushbu mavzu asosida o'quvchilar kasblarga doir so'zlarni aytishi kerak bo'ladi. Har bir

o'quvchi bitta so'z aytadi hamda bayroqchani ikkinchi o'quvchiga uzatadi. Shunday qilib barcha o'quvchilar kasblarga oid so'z aytadi. Aytolmagan guruh o'quvchisi estafetani davom ettirmaydi. Ya'ni eng ko'p so'z topgan guruh g'olib bo'ladi. Bu metod o'quvchilarni chaqqonlikka, zukkolikka, hozirjavoblikka o'rgatadi.

O'zbek tilini o'quvchilar o'rganar ekan, albatta, bu tilda erkin, mustaqil fikrlashi, mulohazalarini oson bayon ettishi lozim bo'ladi. Buning uchun, avvalo, o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, lug'at boyligini kengaytirish lozim. O'quvchilarda so'z boyligini oshirishda interfaol metodlardan foydalanish samarali usullardan hisoblanadi. O'zbek tili darslarida o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish bilan birga yozma nutqini ham rivojlantirish muhim. Buning uchun "Tabiat saxovati" metodidan foydalanilsa, bo'ladi. Buning uchun har bir o'quvchiga savatchada turli meva va sabzavotlar maketi solingan bo'ladi. O'quvchilar navbat bilan doskaga chiqib savatchadagi meva-yu sabzavotlarni yozadi. To'g'ri yozgan o'quvchi rag'batlantiriladi. Notog'ri yozgan o'quvchiga xato tushuntiriladi. Bunga qo'shimcha ravishda yil fasllariga mos mevalarni yozing. Mahalliy va tropik mevalarni yozing kabi qo'shimcha topshiriqlar kiritisa ham ijobiy samaralarga ertishgan bo'lamiz.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, zamonaviy darsliklar zamon talabiga mos ekan zamonaviy o'qituvchi ham shu talablar asosida dars tashkil etishi lozim. Bunda interfaol metodlar, ped texnologiyalardan keng foydalanish muhim omil sifatida

dars samaradorligini oshiradi. O'quvchilarga darsni oson o'zlashtirishiga zamin hosil qiladi. O'quvchilarga fanga qiziqishni oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. 5-sinf o'zbek tili darsligi. N. Rasulov, D.Usmonova, Y.Hasanova. Toshkent-2024.
2. 7-sinf o'zbek tili darsligi. D.Xidoyatova,M. Tulasheva, N.Rasulov, N. Matlatipova, N. Allamberganova, O. Beganchova.
3. 5-sinf uchun adabiyot darsligigi. II qism. S.Axmedov, B. Qosimov, R.Qo'chqorov, Sh.Rizayev.
4. w.w.w. Uz. Wikipediya. Org.
5. w.w.w. baxtiyor.uz.
6. nsportal. ru